

**ALBERT KAMYUNING "BEGONA" QISSASIDA OBRAZ VA
OBRAZLILIK.**

Rabbimqulova Go'zal

Boyqulova Sevara

Annotatsiya: Jahon qissachiligi durdonalaridan biri bo'lgan "Begona" asari nafaqat o'zbek kitobxonlari, balki budun dunyo o'quvchilari uchun yillar osha o'z qadr-qimmatini, saviyasini yo'qotmagan holda barcha qalblarni egallab kelmoqda. Mazkur maqolada asardagi obrazlar va ularning qator tahlillari keltirilgan.

Kalit so'zlar: obraz, individuallashtirilgan umumlashma, konkretlilik, assotsiativlik, personaj, portret.

Qissani o'qir ekanmiz, his-guyg'ularimiz bilan aqlimiz munozaraga kirishadi. Aynan mana shu munozaralar davomida qahramonni his qilamiz hamda yevropa madaniyatini anglashga urinamiz. Asardagi har bir obrazlar mahorat bilan yoritilgan. "Badiiy so'z ustasi o'z asaridagi obrazlari orqali ma'lum bir tuyg'ularini, insonlarga bo'lgan ogohlantirishlarini shu qatorda illatlarga bo'lgan munosabatini ochib beradi. "Obraz" termini rus tilidan olingan bo'lib, o'zbekcha tarjimada "aks" degan ma'noni anglatadi. Masalan, kishining oynadagi aksiga nisbatan ham "obraz" deb aytiladi".¹ Badiiy adabiyotda "obraz" tushunchasi ostida san'atning yoki yozuvchining tafakkur shakli bo'lgan obrazni tushunamiz. "Begona" qissasida Janob Merso, Eshikbon, Toma Perez, Salamono, Raymon Sintez, Mari, Mason kabi obrazlar mujassamlashgan. Asosiy qahramon bo'lgan Merso bir qarashda atrofga insonlarga befarq, sovuqqon bo'lib tuyilishi mumkin, ammo unday emasligini asardagi ba'zi jihatlardan anglash mumkin, Daslab aytib o'tish kerakki, bu dunyoda barchamiz, hatto tuyg'ular ham o'tkinchi, aksincha nafas olayotga har bir insonning hayoti davom etishi barchamizga ayon. Shunday ekan bu kechinmalar uchun ortiqcha tashvishga tushish, shu sababli hayotdagi asosiy vazifalarimiz e'tibordan chetta qoldirib, tushkunlikka tushish noo'rindir. Merso mana shunday hayot haqiqatlarini anglab yetgan inson sifatida

qarash lozim. Albatta u ko'p kitoblar o'qiganligini qissaning so'ngrog'ida keltirilgan.

Badiiy obrazning xususiyatlari turlichadir, ulardan biri individuallashtirilgan umumlashma sifatida namoyon bo'ladi. "Abstrakt tafakkur narsa-hodisaning umumiy xususiyatlariga, obrazli tafakkur esa individual xususiyatlariga tayangan holda fikrlaydi. Deylik, fan umuman odam haqida (masalan, biolog umuman odamning fiziologik xususiyatlari haqida) so'z yuritishi mumkin, biroq san'at hech vaqt umuman odam obrazini yarata olmaydi. Shu ma'noda konkretlik — badiiy obrazning muhim spetsifik xususiyatlaridan biri sanaladi".² Aynan shu holatni qissadagi Salomono chol obrazida yorqinroq ko'rishimiz mumkin. Umumlashmaga obrazning individual xususiyatlarini qo'shish orqali erishiladi. Merso Salomono cholni zinapoyada uchratib qolgan sahnasi: "sakkiz yildan beri ikkovi birga yashaydi", "ko'ppak ham egasiga taasuub qildi" , "sakkiz yildan beri ular yuradigan yo'l o'zgarmaydi" singari jumlar hamda "sakkiz yildan beri..." kabi takrorlar individual belgilarni bo'rttiradi. Mana shu jihatlar orqali kitobxon Salomono chol sakkiz yildan beri yolg'iz yashashi, oila a'zolari yo'qligi shu bilan birga iti bilan yolg'iz, ermaksiz qolmaslik uchungina yashashini bilib oladi. Shuni aytish kerakki, mana shu chol bilan yozuvchi Mersoni ham qolaversa Raymonni ham mana shunday taqdir kutayotganini hamda qaysidir ma'nosa butun qariyalarning qismati mushtarakligini ochib bergan.

"Badiiy adabiyotda assotsiativlik umuman inson tafakkuriga xos narsa. Zero, tashqi olam ta'sirida ongimizda biror narsaning aksi paydo bo'lishi hamono u bilan bog'liq assotsiatsiyalar ham uyg'onadi".³ Masalan, "Navruz" deyilganda hayolimizga "sumalak", "varrak", "sayllar" singari bayram bilan bog'liq tushunchalar keladi. "Begona" qissasida esa sud tizimi orqali jamiyatdagi siyosiy ahvol, insonlarning fikrlashi, asosiy masalalar turganda arzimagan mayda-chuydalar bilan ovora bo'layotgan jamiyat tanqid ostiga olingan. Shu jumladan, agar kitobxon oqlovchi yoki yuridik soha vakili bo'lsa, qissaga umuman bowqa jihatdan nazar solishadi.

"Personajning so'z bilan chizilgan tashqi qiyofasi — portret ham inson obrazini yaratishda muhim vosita sanaladi. Portret, avvalo, personajning o'quvchi ko'z oldida konkret inson sifatida gavdalanishiga ko'maklashadi".⁴ Qissadagi qator portretlarga nazar solsak har birining nomushtarakligini sezamiz. Muallif Oshpaz Selestning

portretini shunday chizadi, "U hamishagiday, meshqorin, oq mo'ylovli, oq fartukda turgan edi". Bu bilan Merso va og'aynisi Selestni faqat oshxonada ko'rishganini, uni shunchaki oshpaz sifatida bilishini anglash mumkin. "Uning ko'zlari moviy, chiroyli yuzlari qizg'ish qoraygan edi" deya ta'riflaydi eshikbonni. Shunday yoqimtoy odam bilan osonlikcha chiqishib ketadi Merso. Onasining dafn marosimiga kelib eshikbon bilangina hotirjam o'tira oladi holos. Raymon Sintes "o'rta bo'yli, yelkalari keng, burni bokschilarnikiga o'xshaydi. Po'rim kiyinib yuradi". Yozuvchi dastlab bu fikrlar orqali qoshmachilarga monand ammo juda salbiy bo'lmagan xarakteristika beradi. Yemakxonadagi g'alatiroq xotin hech qanday vazifasiz shunchaki kiritganday tuyilishi mumkin zero aynan shu obraz bilan Mersoni xarakterini oydinalashtiradi, ya'ni faqatgina Mari bilan emas boshqalar bilan ham qiziqib qolshi ossonligi, ayollarga shunchaki tabiat qonini sifatida qarovchi inson ekanligini. "U juda ajabtovur edi: kichkinagina, serg'ayrat, yuzlari olmachaday, ko'zlari yiltillaydi" deb keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. 2003.
2. Albert Kamyu. Begona. Toshkent. 2014.
3. www.ziyouz.com kutubxonasi
4. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. Akademnashr. 2022.